

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**DINSHUNOSLIK**  
**FANINING O‘QUV DASTURI**


<b>Bilim sohasi:</b>	100 000 - Ta‘lim
	200 000 - San‘at va gumanitar fanlar
	300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
	400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq
	1000000 - Xizmatlar
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	110 000 -Ta‘lim
	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
	230 000 - Tillar
	310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
	410 000 - Biznes va boshqaruv
	1010000 - Xizmat ko‘rsatish sohasi
<b>Ta‘lim yo‘nalishlari</b>	60110900-Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili
	60220500 – Falsafa
	60220300-Tarix
	60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)
	60230200-Tarjima nazariyasi va amaliyoti
	60230400-Kompyuter lingvistikasi
	60310200-Xalqaro munosabatlar
	60310300-Psixologiya
	60410100-Iqtisodiyot
	60411100-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
	61010100-Turizm va mehmondo‘stlik

**TOSHKENT – 2025**

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:  Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenovtika kafedrasi mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i

  
Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi DIN1104	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1/2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Dinshunoslik	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad:</b> Talaba-yoshlar tafakkurida dinning mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o'zaro bog'liqligi, globallashtirish jaryonlarida diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- diniy ta'limotlarning tarixi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish;</li> <li>- ekstremizm va terroizmning paydo bo'lish sabablarini aniqlash, va uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;</li> <li>- diniy va dunyoviy jarayonlarga nisbatan mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>- diniy aqidaparastlikning profilaktikasi va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash;</li> <li>- talabaning mustaqil ta'lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>Leiden universiteti</b> (ARWU 111) tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1">https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1</a></p>			

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish.**

Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati. Din dunyoqarash shakli va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo'lishining geografik va xronologik tasnifi. Diniy e'tiqodlarning evolyutsiyasi: politeizm, genoteizm, monoteizm. Ibtidoiy e'tiqodlar, milliy dinlar, jahon dinlarining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari. Diniy ta'limotlarda xudo va g'ayritabiiy kuchlar haqidagi e'tiqodlar dinamikasi. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi. Ijtimoiy muhit va diniy an'analarning shaxsning diniy e'tiqodi va individual tarbiyasiga ta'siri. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunoslikning metodlari.

#### **2-mavzu. Milliy dinlar**

Yahudiylik dinining yuzaga kelishi. Tavrot yahudiylik dinining muqaddas kitobi. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylik. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduilylik ta'limoti va xudolar panteoni. Jayniylik. Sikxiylik ta'limoti va manbalari. Konfutsiylik ta'limoti va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daochilik – falsafiy ta'limot. "Dao" tushunchasi tahlili. Sintoiylik. Yapon xalqi an'analari. Kami kulti.

#### **3-mavzu: Buddaviylik dini**

Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishi. An'anaviy buddaviylik. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari. O'rta asrlarda Dzen buddaviylik ta'limoti. Chan buddizmning Xitoyda rivojlanishi. Modern buddaviylik. Global buddaviylik. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. Tibetning buddaviylik maktabi va rohib Dalay Lamaning faoliyati. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

#### **4-mavzu. Xristianlik dini**

Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo'nalishlarining o'zaro farqli tomonlari. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi. Rim-katolik cherkovi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Sharqiy Yevropa pravoslavlik avtokefal cherkovlari. XV asrda Yevropada reformatorlik g'oyalari (Anglikan, lyuteran, kalvinizm cherkovlari va h.k.) Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

#### **5-mavzu. Islom dini**

Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Payg'ambarlik va vahiyning talqini. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli. Tavhid aqidasi. Islom dinining besh sharti. Xalifalikning tuzilishi va islom dini tarqalishining tarixi. Roshid xalifalar hukumronligi davridagi islohotlarning mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarining turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati.

#### **6-mavzu. Islomdagi yo'nalishlar va fiqhiy mazhablar**

Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o'rni. Alloh sifatleri haqidagi g'oyalar. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Islomda imon, taqdir, rizq tushunchalarining talqini. Noan'anaviy e'tiqodlar: xorijiya, mu'taziliya, qarmatiya harakatlari. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatleri. Sunniylik va shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va ash'ariylik maktablari.

#### **7-mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar**

Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi. Dinning jamiyat integratsiyasi va barqarorligiga ta'siri. O'zbekistonda konfessional jarayonlarning asosiy yo'nalishlari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvining ahamiyati.

Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining ifodasi. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar). Sekulyarlashuv jarayoni. O'zbekistonning davlat sifatida shakllanishida din omili. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati.

### **8-mavzu. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar**

Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi faoliyati. Baxshillochilar jamoasi. Soxta xristianlik harakatlari. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalar. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo'nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti. Arab davlatlari ligasining maqsadi va faoliyatining yo'nalishlari. Islomiy banklar faoliyatining yo'nalishlari.

### **9-mavzu. Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi**

Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi va islom dini missionerligi. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ'ibot usullari. Missionerlik targ'ibotida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar. Missionerlik va prozelitizmning targ'iboti va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari. Missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

### **10-mavzu. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo'nalishlari**

Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Radikalizmning paydo bo'lishi sabablari va oqibatlari. Diniy radikalizmning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari. Sog'lom va ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan sof islomiy tushunchalarning g'arazli maqsadlarda talqin

etilishining oqibatlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Diniy shiorlar ostidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro terrorizmning mohiyati. AIQoida, ixvanul musulimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri: Turkiston islom harakati, akromiyalar, soxta salafiylik, vahobiylik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.

### **11-mavzu. Kiber makonda din omili**

Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari. O'zbek tilida faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

### **12-mavzu. Diniy va dunyoviy bilimlar mutanosibligi. Islom dini va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi**

Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida diniy ta'limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. O'z o'zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta'lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Diniy ta'limning g'oyalari va usullari. Ibadat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'siri. Duoning inson ongiga ta'siri va duoalar orqali siyosiy tilning shaxs dunyoqarashiga ta'siri. Insonning diniy jamoaga qo'shilishining psixologik jihatlarini. Dinga estetik yondashish, diniy axloq, axloqiy qadriyatlar va meyorlar dialektikasi. Iymon va e'tiqodning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri. Diniy poklanish - katarsisning ijtimoiy psixologik mohiyati. Texnologiya davrida diniy e'tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o'qishda hushyorlikni oshirishning zarurati. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati. Dunyoviy hayot va diniy qadriyatlarining mutanosibligi.

### III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Dinshunoslik" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Dinshunoslik" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Dinshunoslik faniga kirish.
2. Milliy dinlar
3. Buddaviylik dini
4. Xristianlik dini
5. Islom dini
6. Islomdagi yo'nalishlar va fiqhiy mazhablar
7. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar
8. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar
9. Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi
10. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo'nalishlari
11. Kiber makonda din omili
12. Diniy va dunyoviy bilimlar mutanosibligi. Islom dini va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi

#### IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

##### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishini bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislarni va ma'ruza tayyorlash;

**“Dinshunoslik” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar mavzusida taqdimot tayyorlash.
3. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari mavzusida esse yozish.
4. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi mavzusida taqdimot tayyorlash.
5. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari mavzusida videorolik tayyorlash.
6. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon mavzusida taqdimot tayyorlash.
7. Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari mavzusida videorolik tayyorlash.
8. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi mavzusida videorolik tayyorlash.

	<p>9. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissasi mavzusida taqdimot tayyorlash.</p> <p>10. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji mavzusida esse yozish.</p> <p>11. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi mavzusida devoriy gazeta tayyorlash.</p> <p>12. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi mavzusida taqdimot tayyorlash.</p> <p>13. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati mavzusida devoriy gazeta tayyorlash.</p> <p>14. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati mavzusida videorolik tayyorlash.</p> <p>15. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi mavzusida test tayyorlash.</p> <p>16. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati mavzusida taqdimot tayyorlash.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi</p>
<p>3.</p>	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- dinning mohiyati, jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligi, din va fanning o'zaro aloqasi, diniy ta'lim va dunyoviy ta'limning maqsadlari haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- dinshunoslik fanini o'rganish orqali turli dinlarning mohiyati, ularning urfodatlari va e'tiqodlari orasidagi farq va umumiylik, diniy va dunyoviy bilimlarning insonlarning bag'rikengligi va o'zaro hurmatini tarbiyalashdagi roli, jahon dinlari, e'tiqodlari va urf odatlari an'analari, diniy-axloqiy g'oyalarning tahlili; dinshunoslikning asosiy tushunchalari, funksiyalari, buddaviylik dini va uning g'oyalari haqida <b>tushunchaga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- xristianlik dini tarixi va asosiy g'oyalar, katolik pravoslav dinining asosiy g'oyalari va ulardagi farqlar, protestantizm dinidagi plyuralizm haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- islom ta'limotiga oid qarashlar: sunniylik, shialik va xorijiyalar, ularning yo'nalishi va mohiyati; kalom ilmiga oid g'oyalar va mu'taziliylar maktabi munosabatlari haqida <b>tushunchaga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- diniy fundamentalizm, ekstremizm, fanatizmni vujudga keltirgan manbalar va omillarni bilishi va ulardan sof tushunchasini saqlab qolish <b>bilim</b></li> </ul>

	<p><b>va ko'nikmalarga ega bo'lishi;</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- diniy e'tiqodning mohiyatini maxalliy urf-odat, an'analarni tushunish, turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy murosa qilish, ular bilan mulokot qilish <b>madaniyati shakllantirish;</b></li> <li>- din nomi bilan sun'iy boglangan ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlariga karshi kurashish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</b></li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> <li>• organayzer (Klaster, Baliq skeleti, FSMU, Bumerang, Insert, BBXB)lar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test va/yoki yozma ish imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.</li> <li>2. Raximdjano'v D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.</li> <li>3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.</li> <li>4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021.–128 b.</li> <li>5. Shermuxamedova N.A.Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. – Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-4</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p>

5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
10. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// [www.press-service.uz/uz/lists/view/688](http://www.press-service.uz/uz/lists/view/688)
12. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uz.uz/oz/politics/prezident-yeshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>

#### Scopusdan maqolalar

13. Benoit, C., Hutchings, T. Who studies religion? Towards a better conversation between Theology, Religious Studies, and Religious Education. *j. relig. educ.* 71, 315–326 (2023).  
<https://doi.org/10.1007/s40839-023-00213-0>
14. Provis, C. Spirituality: Definition, Religion and Ethics. *Humanist Manag J* 8, 399–420 (2023).  
<https://doi.org/10.1007/s41463-023-00162-8>
15. Sufism: Is it the Alternative Face of Islam?  
Chapter 7, which discusses Sufism, contributes to the rebuttal of Islamophobia because it is perceived as the 'softer' and more acceptable version of Islam. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-57300-2\\_7](https://doi.org/10.1007/978-3-031-57300-2_7)

6. Axborot manbalar

	<p>16. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>.  17. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a>.  18. <a href="http://www.library.ziyonet.uz">www.library.ziyonet.uz</a>.  19. <a href="http://www.islam.uz">www.islam.uz</a>.</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>  <b>Izzetova E.M.</b>- TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida f.f.d., professor  <b>Xamutaliyev O.P.</b>- TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida katta o'qituvchi  <b>Shokirova D.B.</b>- TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida o'qituvchisi  <b>Ismoilov Sh.Sh.</b>- TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>Nishonova O.J.</b> – O'zMU "Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasining professori f.f.d.  <b>Saydaliyeva N.Z.</b> – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrasida dotsenti, f.f.n.</p>